



QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING QARORI

181000 O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Yangi Mirishkor shaharchasi, tel: 652-18-58, 652-10-34, faks: 652-14-65, 652-19-48

2021 - yil 11 - noyabr

441-4-63-Q/21

Mirishkor tuman hokimligi

“Yashil makon” umummilliy loyihasini hayotga tatbiq etish, tumanda ekologik vaziyatni yaxshilash, 2021 yil kuz-qish va 2022 yil bahor oylarida ko‘chat ekish ishlarini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ustuvor vazifalar va bu yo‘nalishdagi muammolarni bartaraf etish, tuman hududlarida joriy yil kuz-qish va 2022 yil bahor mavsumida ko‘kalamzorlashtirish, manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlarini ekish ishlarini tizimli va uyushqoqlik bilan tashkil etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021 yil 2 noyabrda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021 yil 2 noyabrda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chati va qalamchalarini shartnoma asosida yetkazib berish hamda ekish ishlarini muvofiqlashtiruvchi tuman ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga;

2021 yil kuz-qish oylarida fermer xo‘jaliklarining dala chetlariga manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalarini ekishning prognoz ko‘rsatkichlari 2, 2a-ilovalarga;

2021 yil kuz-qish oylarida suv xo‘jaligi obyektlari atrofi, kanal, ariq va zovurlar bo‘ylariga ekiladigan manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalarini ekishning prognoz ko‘rsatkichlari 3, 3a va 3 b-ilovalarga;

aholi xonadonlarida ekiladigan mevali va manzarali daraxtlar ko‘chatlarini ekish ko‘rsatkichlari 4 va 4a-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman ishchi guruhining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

hududlarda ko‘chatlarni sotib olish yuzasidan shartnomalar tuzish, to‘lovlarni oldindan amalga oshirish, ko‘chat yetkazib berish va ekish bo‘yicha kunlik monitoring yuritish;

tumanning eksport saloxiyatini oshirish maqsadida mahalliy aholi bilan kelishgan holda aholi xonadonlariga **“Bir hudud – bir mahsulot”** tamoyili asosida ko‘chatlar ekilishini tashkil qilish;

fermer xo‘jaliklari dala atrofi, konturlar bo‘ylariga ko‘chat ekish ishlarini tezkor amalga oshirish;

suv xo‘jaligi obyektlari, kanal, ariqlar bo‘ylari, gidrotexnik inshoot va gidropostlar atrofiga mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini ekish ishlarini tashkil etish;

ko‘chat ekish va ularni to‘liq undirib olish uchun sug‘orish ishlarini tashkil etish bo‘yicha yuzaga keladigan muammolarni tezkor hal qilish;

ko‘chat ekish ishlarining borishi bo‘yicha kunlik monitoring yuritish;

ekilgan ko‘chatlarni parvarishlash, ularni payhon qilinishidan saqlash yuzasidan monitoring olib borish;

alohida guruh tashkil qilib, ko‘chatlarning soni va sifatli ekilishi yuzasidan alohida monitoring yuritish;

amalga oshirilgan ishlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar yuzasidan joylarda muhokamalar o‘tkazish.

4. Tuman Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi (M.Badalov), O‘rmon xo‘jaligi bo‘limi (M.Olloberdiyev) bilan birgalikda:

mazkur qarorda belgilangan ko‘chatlarni sotib olish yuzasidan shartnomalar tuzish, to‘lovlarni amalga oshirish, ko‘chat yetkazib berish, ekish bo‘yicha tuman miqyosida kunlik monitoring yuritish hamda joylarda ekilgan ko‘chatlarning holati to‘g‘risida har kuni tuman ishchi guruhi va tuman hokimligiga tahliliy-tanqidiy axborot taqdim etib borish;

ekilgan daraxt ko‘chatlarini mavsum davomida parvarishlash, ularni zararkunandalardan himoya qilish va payxon etilishining oldini olish bo‘yicha ta’sirchan nazorat o‘rnatish.

5. Belgilansinki, hududlarda manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalarini sotib olish mahalliy ijro hokimiyati organlari, manfaatdor tashkilot va boshqarmalarning mazkur tadbirlar uchun nazarda tutilgan mablag‘lari hisobidan hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan belgilangan tartibda moliyalashtiriladi.

6. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (J.Abdinazarov):

xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholi uchun ko‘chatlarni tizimli yetkazib berish maqsadida bozorlar va boshqa qulay manzillarda ko‘chat sotish nuqtalarini tashkil etsin;

mahallalar, qishloqlar, aholi yashash punktlari, hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar,

ziyoratgohlar va qabristonlarga, shuningdek, qishloq xo'jaligi yerlarida (ihota) hamda o'rmon fondi yerlarida manzarali daraxtlar va buta ko'chatlarini ekish tadbirlarini uyushqoqlik bilan o'tkazsin;

ko'chat ekilgan obyektlarga mas'ullarni biriktirish, ular tomonidan ko'chatlarni mavsum davomida parvarishlash, ularni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish hamda payhon etilishining oldini olish, shuningdek, mavsum yakunida ko'chat ekilgan hududlarni yer egalariга topshirish, ya'ni ko'chat ekilganligi to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirish orqali tegishli hujjatlarga o'zgartirish kiritish choralarini ko'rsin.

7. Tuman hokimining mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha o'rinbosari (U.Yaxshiyev), Fermer dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (M.Sharopov) hamda Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi (A.Tangriyev) ko'kalamzorlashtirish tadbirlariga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarning keng jalb etilishini ta'minlasin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari J.Abdinazarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Sh.Ch.Sanayev

Миришкор туман ҳокимининг
2021 йил 11 ноябрдаги
441-4-63-Q/21-сон қарорига
1-илова

**Манзарали, мевали дарахт ва буталар кўчатлари ҳамда қаламчаларини
шартнома асосида етказиб бериш ҳамда экиш ишларини
мувофиқлаштирувчи туман ишчи гуруҳи
ТАРКИБИ**

№	Фамилияси ва исми	Лавозими
1.	Санаев Шерали	- Туман ҳокими, <i>ишчи гуруҳ раҳбари</i>
2.	Абдиназаров Жахонгир	- Туман ҳокимининг Қишлоқ ва сув хўжалиги масалалари бўйича ўринбосари, <i>ишчи гуруҳ раҳбари ўринбосари</i>
3.	Яхшиев Умид	- Туман маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш бўлими бошлиғи, <i>ишчи гуруҳ раҳбари ўринбосари</i>
4.	Бадалов Музаффар	- Туман экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш бўлими бошлиғи
5.	Оллобердиев Муқумбой	- Туман ўрмон хўжалиги директори
6.	Шаймардонов Давлат	- Туман Қишлоқ хўжалиги бўлими бошлиғи
7.	Турсунов Азизбек	- Туман Ирригация бўлими бошлиғи
8.	Шаропов Мухтор	- Туман Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши раиси
9.	Вакилов Азамат	- Туман Касаба уюшмалари кенгаши раиси
10.	лавозими бўйича	- Туман ҳокимлиги бош мутахассиси, ишчи гуруҳ котиби

Миришкор туман ҳокимининг
2021 йил 11 ноябрдаги
441-4-63-Q/21-сон қарорига
2-илова

**Миришкор тумани фермер хўжалиklarининг дала атрофларида 2021 йил куз-қиш, 2022 йил баҳор ойларида кўчат экиш
ТОПШИРИҒИ**

№	Худуд номи	Жами ер майдони, га	Экиладиган кўчат сони, минг дона	шундан		шундан					
				2021 йил куз-қиш ойларида	2022 йил баҳор ойларида	Тут	Ясен	Павловния	Терак	Жийда	Гилос
1-сектор. Туман ҳокими сектори.											
1	Миришкор	4529,2	16,2	10,1	6,2	16,2					
2	Жейнов	4559,5	16,3	10,1	6,2	16,3					
3	К.Фазли	3452,3	12,4	7,7	4,7	12,4					
4	Тожикистон	1582,5	5,7	3,5	2,2	5,7					
1-сектор жами		14123,5	50,6	31,3	19,2	50,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
2-сектор. Туман прокурори сектори.											
1	Тошкент	5290,6	18,9	11,7	7,2	18,9					
2	Р.Ғойибов	4257,1	15,2	9,4	5,8	15,2					
3	Янгиобод	2569,4	9,2	5,7	3,5	9,2					
4	Авазҷўл	1620,7	5,8	3,6	2,2	5,8					
2-сектор жами		13737,8	49,2	30,5	18,7	49,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
3-сектор. Туман ИИБ бошлиғи сектори.											
1	С.Муродов	5527,5	19,8	12,3	7,5	19,8					
2	О.Бошоқ	1961,0	7,0	4,4	2,7	7,0					
3	Дўстлик	3431,9	12,3	7,6	4,7	12,3					
4	Помуқ	2408,8	8,6	5,3	3,3	8,6					
3-сектор жами		13329,2	47,7	29,6	18,1	47,7	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
4-сектор. Туман ДСИ бошлиғи сектори.											
1	Чандир	2390,0	8,6	5,3	3,3	8,6					
2	А.Темур	2625,1	9,4	5,8	3,6	9,4					
3	Махтумқули	3157,0	11,3	7,0	4,3	11,3					
4	Автономов	3766,7	13,5	8,4	5,1	13,5					
4-сектор жами		11938,7	42,7	26,5	16,2	42,7	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Туман жами		53129,200	190,2	117,9	72,3	190,200	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0